

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turaboyev Azamat Maxamadullayevich

*University of Business and Science
pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

turaboevazamat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar, jumladan, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros, kasbiy identifikatsiya, refleksiv tafakkur hamda ijtimoiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Maqolada transformatsiya yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlikni anglash, identifikatsiya, refleksiv tafakkur, transformatsiya yondashuv, refleksiya, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros, etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya va etnopedagogika.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING NATIONAL SELF-AWARENESS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and psychological characteristics involved in fostering national self-awareness among future primary school teachers. It substantiates the interrelationships among the pedagogical and psychological factors influencing the development of national self-awareness in future educators—specifically national values, historical memory, spiritual heritage, professional identity, reflective thinking, and social engagement. The article highlights the significance of an educational process organized around a transformational approach for developing national self-awareness in future primary school teachers and analyzes the effectiveness of utilizing modern pedagogical technologies and interactive methods.

Keywords: national self-awareness, identification, reflective thinking, transformational approach, reflection, national values, historical memory, spiritual heritage, ethnopsychology, social psychology, and ethnopedagogy.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ педагогико-психологических особенностей формирования национального самосознания у будущих учителей начальных классов. Обосновываются взаимосвязи между педагогическими и психологическими факторами, влияющими на развитие национального самосознания будущих педагогов, — в частности, национальными ценностями, исторической памятью, духовным наследием, профессиональной идентичностью, рефлексивным мышлением и социальной активностью. Подчеркивается значимость организации образовательного процесса на основе трансформационного подхода для развития национального самосознания будущих учителей начальных классов, а также анализируется эффективность применения современных педагогических технологий и интерактивных методов.

Ключевые слова: национальное самосознание, идентификация, рефлексивное мышление, трансформационный подход, рефлексия, национальные ценности, историческая память, духовное наследие, этнопсихология, социальная психология, этнопедагогика.

KIRISH

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish bugungi kunda oliy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsining intellektual, ma'naviy-axloqiy va fuqarolik fazilatlari shakllanadigan muhim bosqich bo'lib, ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va milliy o'zligini anglash darajasiga bevosita bog'liqdir. Milliy o'zligini chuqur anglagan bo'lajak pedagog o'z kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma'naviy an'analar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligini ta'minlay oladi hamda ularni o'quvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida singdirishga qodir bo'ladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashning shakllanishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-qadriyatli hamda reflektiv-faoliyat komponentlarining o'zaro uyg'un rivojlanishini taqozo etadi. Ushbu jarayonda talabaniq milliy tarix, til, madaniyat, urf-odat va an'analar haqidagi bilimlari, ularga nisbatan ijobiy munosabati, kasbiy qadriyatlari, vatanparvarlik tuyg'usi, fuqarolik mas'uliyati hamda o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish ko'nikmalari muhim

psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy hamda transformatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bo'lajak pedagoglarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari tashkil etadi. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlash, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish, ushbu jarayonning mazmuni, mexanizmlari, omillari va samarali metodlarini aniqlash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, milliy o'zligini anglagan pedagog nafaqat o'z kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishadi, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik pozitsiyasi, ma'naviy barkamollik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga munosib hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy o'zlikni anglash murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uning mazmunida subyektiv omillar muhim o'rin egallaydi. Mazkur jarayon jamiyat taraqqiyoti, tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zgarib boradi. Ba'zi vaziyatlarda milliy o'zlikni anglash me'yoridan chetga chiqib, boshqa millatlarga nisbatan ustunlikni da'vo qiluvchi yoki ularni inkor etuvchi qarashlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holat sog'lom milliy o'zlikni anglashdan farqli ravishda millatchilik va etnotsentrizm kabi salbiy ko'rinishlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash shaxsning o'zini muayyan millat vakili sifatida idrok etishi, shu bilan birga boshqa millatlar bilan o'zaro taqqoslash orqali o'ziga xos va umumiy jihatlarni anglay olishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonda faqat farqlar emas, balki xalqlar o'rtasidagi mushtarak qadriyatlar va umumiy insoniy fazilatlarni ham anglash muhim hisoblanadi. Aks holda, faqat tafovutlarga urg'u berish millatlararo munosabatlarda noto'g'ri stereotiplar va etnosentrik qarashlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Milliy o'zlikni anglash doimo baholash, tahlil qilish va o'zaro munosabatlarni anglash bilan bog'liq. Inson o'z millatining tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlarini chuqurroq bilgan sari boshqa millatlarning ham o'ziga xos jihatlarni anglay boshlaydi. Natijada millatlararo muloqot madaniyati rivojlanadi, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillari mustahkamlanadi.

Rus tadqiqotchisi Knyazevning fikricha, "Milliy o'zlikni anglash millatni yaxlit ijtimoiy birlik sifatida idrok etish va uni boshqa millatlardan ajrata olish qobiliyatida namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi. [6] Zamonaviy etnopsixologik tadqiqotlarda esa millatlar o'rtasidagi nafaqat farqlar, balki umumiyliklarni anglash ham milliy o'zlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Milliy o'zlikni anglash ikki darajada namoyon bo'ladi:

birinchisi shaxs darajasida,

ikkinchisi esa etnik guruh yoki jamoa darajasida.

Shaxsning milliy o'zligini anglashi uning individual tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari bilan bog'liq bo'lsa, jamoaviy darajadagi milliy o'zlik butun etnik guruhning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va umumiy manfaatlari asosida shakllanadi. Ushbu ikki daraja o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Professor E. G'oziyevning ta'kidlashicha, "Milliy o'z-o'zini anglash – muayyan xalqning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligida, makroiijtimoiy munosabatlarda o'z millati egallagan mavqeini aniq tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida o'z ifodasini topishdir." [7] Olimning ta'kidlashicha, bu jarayonning shakllanishida oiladagi tarbiya, ota-onaning shaxsiy namunasi, ona tili muhiti, milliy madaniyatga bo'lgan qiziqish, qarindoshlik munosabatlari va ijtimoiy muhit muhim omillar hisoblanadi.

S.S. Otamurodovning ta'kidlashicha, "Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash milliy taraqqiyotning muhim omili bo'lib, shaxsda milliy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik mas'uliyati hamda Vatan ravnaqi uchun daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon, ayniqsa, yoshlar va bo'lajak pedagoglarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi" deb ta'kidlaydi. [8]

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishiga tarixiy taraqqiyot, tabiiy-geografik sharoit, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlar kabi obyektiv omillar, shuningdek, shaxsning dunyoqarashi, bilim darajasi, ma'naviy kamoloti va individual faolligi kabi subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarning uyg'unlashuvi milliy o'zlikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida iqtisodiy aloqalarning kengayishi, hududiy birlikning mustahkamlanishi, umumiy til va madaniyatning rivojlanishi millatlarning shakllanishi va milliy o'zlikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, xalqning tarixiy taqdiri, turmush tarzi, urf-odatlar va an'analar uning ma'naviy qiyofasi hamda milliy tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Mustaqillik davrida O'zbekiston psixologiya fanida milliy o'zlikni anglash, etnopsixologik jarayonlar hamda milliy psixologik xususiyatlarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yo'nalishda M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, E.G'. G'oziyev, V.M. Karimova, M.M. Mamatov, N.S. Safayev, A.M. Jabborov, I.I. Mahmudov va boshqa olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlarda etnik xarakter genezisi, uning tarkibiy tuzilishi, funksiyalari hamda milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq psixologik omillar turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Xususan, M.G.Davletshin hamda E.G'.G'oziyev respublikamizda etnopsixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariy hamda amaliy masalalarni tadqiq etgan bo'lsalar, M.M.Mamatov va N.S.Safayev ilmiy izlanishlarini etnik identifikatsiya hamda milliy o'zlikni anglash muammolarini yoritishga bag'ishlaganlar. F.S.Tato'baeva ijtimoiylashuv jarayonida etnik stereotiplarning shaxs rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, I.I. Mahmudov etnik stereotiplarning xulq-atvor namoyon bo'lishidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

Shuningdek, S.S. Otamurotov O'zbekiston mustaqilligi sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog'liq holda milliy o'zlikni anglash holatini o'rgangan [8]. N. Salaeva o'zbek oilasining hududiy va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, V.M. Karimova yosh yigit-qizlarning o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilgan. O.B. Muxammadberdiev esa O'rta Osiyo xalqlarining zamonaviy taraqqiyot sharoitida milliy o'zlikni anglash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritgan.

Ba'zi ilmiy qarashlarda etnik o'zlikni anglash va milliy o'zlikni anglash bir-biridan farqlanadi. Aslida esa bu tushunchalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, milliy o'zlik etnik mansublikni anglash negizida shakllanadi. Shaxs o'z millatining o'ziga xos jihatlarini boshqa millatlar bilan taqqoslash orqali yanada chuqurroq anglaydi. Bunday jarayonning muvaffaqiyatli kechishi uchun esa yetarli intellektual salohiyat, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy tajriba talab etiladi.

Milliy o'zlikni anglash etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopedagogika va milliy tarbiya fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik davrida ushbu tushunchaga alohida e'tibor qaratilib, uni shaxsning o'zini muayyan millatning teng huquqli vakili sifatida anglash, umumiy tarix, til, madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, davlat va Vatanga daxldorlik hissini his etishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin qilish keng tarqaldi.

Ilmiy adabiyotlarda milliy o'zlikni anglashning tarkibiy qismlari bo'yicha yagona yondashuv mavjud bo'lmasa-da, ko'plab tadqiqotchilar uning asosiy elementlari sifatida milliy identifikatsiya va milliy manfaatni ko'rsatadilar. Ushbu elementlar shaxsning hissiy kechinmalari, qadriyatlari, e'tiqodi, munosabatlari va ijtimoiy ustanovkalari bilan chambarchas bog'liq.

Milliy identifikatsiya insonning o'zini ma'lum millat vakili sifatida qabul qilishi, umumiy tarixiy xotira, etnik kelib chiqish, ona tili, Vatan, milliy madaniyat, urf-odat va an'analarga daxldorlik hissini anglashni ifodalaydi. U shaxsning o'z millati haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribalarini yagona tizimga birlashtiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Turli xalqlarda milliy identifikatsiyaning namoyon bo'lish darajasi tarixiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga qarab o'zgarib boradi.

Psixologik jihatdan milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi shaxsning o'zini identifikatsiya qilishi bilan boshlanadi. Milliy identifikatsiya bo'lajak o'qituvchining o'zini o'zbek xalqining vakili sifatida anglashi, milliy tarix, ona tili, Vatan, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni o'zining ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur identifikatsiya shaxsning milliy manfaatlarni anglashiga, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga hamda kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga tayyorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashning shakllanishi ijtimoiy taqqoslash va refleksiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Talaba o'z milliy

mansubligini anglash jarayonida nafaqat o'z xalqining tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini o'rganadi, balki boshqa millatlarning madaniyati va qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida munosabatni ham shakllantiradi. Natijada unda milliy g'urur bilan bir qatorda bag'rikenglik, tolerantlik va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik rivojlanadi. Bu esa pedagogik faoliyatda turli madaniy muhit vakillari bilan samarali muloqot olib borish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon shaxsning milliy mansublikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, fuqarolik mas'uliyatini his etish, kasbiy o'zini identifikatsiyalash hamda refleksiv tafakkurni rivojlantirish kabi o'zaro bog'liq komponentlarning izchil shakllanishiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglash faqatgina ma'lum bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki talabaning dunyoqarashi, e'tiqodi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy faolligi va kasbiy pozitsiyasini belgilovchi integral shaxsiy sifat sifatida namoyon bo'ladi.

O'rganilgan ilmiy manbalar milliy o'zlikni anglash masalasi falsafa, pedagogika, psixologiya, etnopsixologiya va sotsiologiya fanlari doirasida keng tadqiq etilganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur muammoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog'lagan holda, transformatsion yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlari hali ham yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, talabaning shaxsiy tajribasini qayta tahlil qilish, o'z qadriyatlarini tanqidiy baholash, refleksiv fikrlashni rivojlantirish, kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash va milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik faoliyatga integratsiya qilishga qaratilgan metodik ta'minotning takomillashtirilishi zarurati mavjud.

Shuningdek, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish jarayoni oliy ta'lim muassasasidagi barcha ta'lim va tarbiya faoliyatining uzviy integratsiyasini talab etadi. O'quv fanlari mazmuniga milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar hamda zamonaviy fuqarolik jamiyati tamoyillarini singdirish, amaliy mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar, loyiha ishlari, treninglar va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning milliy o'zlikni anglash darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mentorlik tizimi, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samarali tashkil etilishi ham ushbu jarayonning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning samaradorligi bir qator pedagogik-psixologik omillar bilan belgilanadi. Jumladan, ichki motivatsiyaning shakllanganligi, milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, refleksiv tafakkurning rivojlanganligi, kasbiy identifikatsiyaning barqarorligi, kommunikativ kompetentlik, innovatsion faoliyatga tayyorlik hamda uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga intilish ushbu jarayonning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan pedagogik jarayon bo'lib, u shaxsning ma'naviy kamoloti, kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1–2-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Davletshin M.G. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi.
5. Mavlonova R., Rahmonqulova N. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

6. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 456 b.
7. G'oziyev E.G'. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 352 b.
8. **Otamurotov S.S.** *Globallashuv va millat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
9. SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI A To'raboyev - MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 2025 Related articles All 2 versions <https://doi.org/10.5281/zenodo.15641133>
10. Nishonova Munira Yakubjonovna, & Xalilov Adham Farhod og'li. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 149–153. Retrieved from <https://newjournal.org/01/article/view/14974>
11. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.
12. Qayumov, B. Z. (2025). O'SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO'LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(6).